



«QUYMOZOR VA YORTEPA» MODDIY MADANIY MEROS OB'EKTLARINING TURIZM OB'YEKTI HAMDA TA'LIM TARBIYA MASKANI SIFATIDAGI O'RNI

Mamadjonova Shahlo To'ychiboy qizi

*Namangan Davlat Universiteti Pedagogika fakelteti Tasviriy va amaliy san'at
kafedrası 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada milliy me'morchiligimizning oliy o'quv yurtlarida tasviriy va amaliy san'at fanini o'qitishda hududiy milliy madaniy meros ob'ektlaridagi qadimiy naqshu nigorlar, me'morchilik inshootlaridagi mahobatli ananaviy rangtasvir asarlaridan talabalarni bilim va ko'nikmalarini oshirishdagi jarayonida talabalarga bilim berish, ularning bilish qobiliyatini rivojlantirish, hamda milliy qadriyatlarimizni asrab avaylash to'g'risidagi ta'lim-tarbiya berish kabi muhim vazifalar hal qilinadi. Ushbu masalalarni hal qilishda olib borilgan tadqiqot va olingan tajribalar natijalariga binoan, ularni o'quv jarayoniga amaliyotlarni tadbiiq etish tajribalari keltirilgan va uchraydigan muommolarni yechimi ifodalangan.*

Kalit so'zlar: *Qadriyat, naqsh, stilizatsiya, badiiylashtirish, ranglarning omuxtaligi, kolorit, pardozlash, handasa, islmiy, murakkab islmiy, geometrik, materialshunoslik, me'moriy yechim, milliylik, tarixiy-madaniy meros, handasa, muqarnas, guldasta, ark, gisht, qorishma, koshin, qadimiy texnologik qurilish ashyolarini anglash, milliy me'moriy tarixiy-madaniy yodgorliklarni ilmiy tarzda o'rganish.*

Kirish: Bu maqolani yozishdan asosiy maqsadim bir tomondan, milliy me'moriy obidalarimizdagi xalq amaliy san'ati va me'morchiligining arxeologik, tarixiy va hujjatli tadqiqotlarini, ikkinchi tomondan esa bu hodisalarning falsafiy, estetik, tanqidiy tadqiqotlarini ajratib turuvchi uslubiy chegaralarni taqqoslab ilmiy o'rganishdan iboratdir. Ma'lumki ajdodlarimiz tomonidan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni kelajak hayotga tayyorlash, ijodiy faoliyatga, odob-axloqli bo'lishga, ilm olishga, foydali yumushlar bilan shug'ullanishga tayyorlash ishlari Sharq xalqlarining qon-qoniga singib ketgan noyob amallardandir. Shu bilan birga azaliy qadriyatlarimiz bo'lgan milliy hunarmandchilik san'ati ana'nalarimizni kelajak avlod uchun yetkazib berishdan iborat. Ta'lim-tarbiya ishlarining qonun bilan himoyalinishi, barcha tashkiliy, rahbarlik va ta'minot ishlarining davlat tasarrufida bo'lishi, xalqimizning o'z kelajagi uchun saqlab qolish borasidagi milliy merosimizga bo'lgan jiddiy e'tibordan dalolat beradi. Tarix xotirasi xalqning, jonajon o'lkamizning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni yangilashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

Milliy xalq amaliy san'atining estetik tushunchasi milliy san'atimizning beqiyos darajadagi ko'rinish, uslub va u yo'naltirilgan bilimlarning tabiati jihatidan tubdan farq qilishi nafaqat tasviriy san'at tushunchasini beradi, balkim turli fanlarning bir-biri bilan



mutanosibligini ham ifodalaydi. Bunga biz qadimiy shahar qoldiqlari va me'moriy obidalarimizdagi, ayrim arxeologik yodgorliklardan topilgan topilmalar xususida ham ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkindir. Buning uchun tasviriy san'at, qadimiy qo'lyozma kitoblar, tarix, me'morchilik va arxeologiya fanlarini umumlashtirib tasviriy san'atni moddiy madaniy meros ob'ektlaridagi me'moriy inshootlari, qo'lyozmalar va boshqa mahsulotlarga shunchaki qiziqarli yodgorlik sifatida qarash, ularning madaniy va tarixiy kelib chiqishini o'rganishga arziydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, diyorumiz jahon tarixi va tamaddunining eng qadimiy makon va markazlaridan biridir. Respublika hududida saqlanib qolgan yuzlab bebaho arxeologik maskanlar, me'moriy va yozma yodgorliklar, amaliy san'at va xalq ijodiyati namunalari, bularning barchasi xalqimizning boy va betakror tarixiy – ma'naviy merosidir. Sharq xalqlarining uzoq tarixida, hatto odamzod paydo bo'lishining boshlang'ich davrlarida, masalan, ibtidoiy jamoa tuzumida, quldorlik jamiyati tuzumida ham yosh bolalarning, kelajak avlodning tarbiyasiga e'tibor berib kelingan.

Albatta Sharq me'morchiligi ulardagi milliy xalq amaliy san'ati namunalari ilmiy tadqiqot orqali o'rganish, ularni nafaqat tomosha qilish zavq olish go'zallik bilan oshufta bo'lib qolmasdan, Sharqning bugungi kundagi san'at sarchashmalarini ham ilmiy-estetik tomonlama ham tasavvur etish zaruratining kelajak avlodga yetkazishdan iborat muhim masalalardan biridir. Shuningdek har bir tasviriy san'at asarlari namunalari o'zining kelib chiqish tarixi bilan birga uning xom-ashyosi, materialshunosligi qanday tabiiy yo'llar bilan xosil qilib olinganligi, uning kimyoviy-fizikaviy texnologik jarayonlarini ham inobatga olinganligi haqida ham batafsil ma'lumotlarni yetkazib berish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek xom-ashyo texnologiyasi, ranglarni xosil qilish, o'simlik va hayvonot dunyosining badiiyashtirish orqali xosil qilingan turli xandasiy va islmiy naqsh namunalari to'g'risida ham yozib qoldirilgan qo'lyozma va yozma manbalar orqali ma'lumotlarni berib borish ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan badiiy asarlar namunasi ekanligini ko'rsatib berish ularning ilmiy axamiyatini ko'rsatishdan iboratdir. Bu borada albatta me'moriy obidalarimizdagi saqlanib qolgan milliy naqshu-nigorlarimiz va keyingi davrlarda ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqot ishlari, ular tomonidan matbuot orqali chop ettirilgan qo'llanma va darsliklar orqali yetkazib berish orqali yosh avlodni milliy merosimizga bo'lgan qiziqishni oshirishdan iboratdir.

Ma'lumki, odamlar va ularning jamiyat qurish jarayoni juda uzoq tarixga egakim, uning o'rganish har bir davr va unda yashagan xalqlarning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Quymozor qishlog'i – To'raqo'rg'on tuman, Quymozor qishlog'i Qo'qimboy va Kengqo'l adirlari orasida, Kosonsoy yon bag'rida joylashgan¹. Quymozor qishlog'i o'zining geografik o'rni va joylashishiga ko'ra Respublikaning tog'li zonalariga kirib,

¹ Ro'zinov, B., Rejabova, S., & Ismoilov, Yu. (2013). Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. *Namangan: Namangan*.



u ikki baland kirlar orasidagi dara ko‘rinishiga egadir. Qishloqning tabiati g‘oyat ko‘rkam, salqin, obi-havosi mayin, shabadali, rang-barang ko‘rinishga egadir. Umuman Quymozor tabiati o‘ziga xos bir tarovat bilan odamlarga huzurbaxsh etib, unda qancha mehnat va ijod qilsangiz ham charchamaysiz. Bu yerning tabiatiga ko‘ra har qanday o‘simlik, hayvonot dunyosi, parrandalarning yashashi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Quymozor qishlog‘ining betakror tabiati bilan bir qatorda davlat muhofazasidagi “Yuqori qabriston”, “Yulg‘inmozor”, “Kelinchakmozor” arxeologik yodgorliklari mavjud. Quymozor to‘g‘risida turli rivoyatlar mavjud bo‘lib, qadim zamonlarda g‘oyat buyuk zotlardan biri shu yerda olamdan o‘tgan ekan. U kishini hozirgi “Quymozor” deb atalmish o‘rniga dafn etib, odamlar qabrdan yetti qadam uzoqlashganlarida qabrdan o‘t chiqib, tevarak atrofidagi qamishlar yonib, bu yerda ekin ekadigan yer paydo bo‘libdi. Odamlar yerni bog‘ qilib, qabrni “Quymozor” deb atabdilar. Shu-shu bu yerda katta bog‘, uning o‘rtasida g‘oyat katta hashamatli mozor-qabr saqlanib keladi. Qishloq nomi shundan kelib chiqqan ekan. Lekin shunga qaramasdan dastlab, 1960 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va leningradlik arxeolog olimlar tomonidan “Yuqori qabriston”, “Yulg‘inmozor”, “Kelinchakmozor” arxeologik yodgorliklari o‘rganishgan.

Shu bilan milliy xalq amaliy san‘atimizning noyob san‘ati na‘munalari va artefaktlarining arxeologik, tarixiy va hujjatli tadqiqotlari ularning qaysi davrga tegishli bo‘lganligidan kelib chiqib, madaniy qimmatini ko‘rsatish bilan ahamiyatli tomonlarini ilmiy o‘rganishdan iboratdir. Lekin bunday izlanishlarda, aksariyat devoriy asarlarning estetik va badiiy qiymatiga juda kam e‘tibor berishadi. Darhaqiqat, ushbu milliy san‘atimizning tarixiy tadqiqotlari zamonaviy talabalar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ularda turli falsafiy tushunchalar batafsil yoritib berilgan.

Mustaqillik yillarida esa viloyat madaniyat yodgorliklarini saqlash davlat inspeksiyasi boshlig‘i B.Ro‘zinovning tasdiqlashicha “Quymozor” arxeologik yodgorligi qadimiy qo‘rg‘on qoldiqlari bo‘lib, hozirda ark-tsitadel va qisman qal‘a-inshootlarning qoldiqlari saqlanib qolganligini aytib o‘tadi. Shuningdek yodgorlik Kosonsoy yon bag‘rida joylashganligi sababli katta sel kelishi natijasida qo‘rg‘onni yodgorlikni yuvib, yaqqol davrlar qirqimini ko‘rsatib bergan. Yodgorlikdagi katlamlar turli davrlarga tegishli bo‘lib, asosan antik davr va qisman o‘rta asrlarga oid sopol buyumlar, tosh yorg‘uchoqlarning siniqlaridan iborat. Yodgorlik aslida keng yer maydonida bo‘lgan, lekin aholi tomonidan tepalikning tuprog‘i unumdorligi tufayli ekin maydonlariga tashib yuborishgan. Natijada hozirgi kunda yodgorlikdan bir qismigina saqlanib qolgan. Qolgan qismi esa bog‘ sifatida aholiga bo‘lib berilgan. Shuningdek qishlog‘imizdagi qadimiy masjid binosini ham XVIII asrlarga oid me‘moriy obida ekanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aytib ketgan.

Tadqiqotchilar maktabning tarix o‘qituvchisi S.Nuriddinov yordamida maktab o‘quvchilari bilan hamkorlikda “Yuqori qabriston” mozorida 6 ta qabr o‘rnini ochib o‘rganishgan. 1968 yili esa kazilgan qabr tubidan bronza davri ya‘ni “Chust madaniyati”ga oid toshdan yasalgan siyohdon va yozuv qurollari topilgan. Dastlabki



tadqiqot natija-hulosalariga asosan miloddan avvalgi bir mingginchi yillarda ham o‘ror aholi yashaganliklari haqidagi ma’lumotlarni aytib o‘tishadi.

To‘raqo‘rg‘on tuman Yortepa qishlog‘i Hamid Olimjon ko‘cha 8-uyda yashovchi Yunusov Muhammadjon hovlisida joylashgan, yer maydoni 0,05 gektar. Antik davrga mansub arxeologik yodgorlik. Rivoyatlarda Axsikentga shu yodgorlik ostidan quvurlar orqali suv yetkazilib berilganligi aytiladi. 1980 yillar boshida leningradlik arxeolog olimlar kelishib, tepalik ustida qidiruv olib borishgan va barcha olingan materiallarni o‘zi bilan olib ketishganligini aytishadi². Asli nomi “Chortepa” bo‘lib, bu nom qishloqdagi 4 ta tepa bilan bog‘liq bo‘lgan. Xozirgi kunda esa ushbu yodgorlik hududida Ko‘k to‘nli ziyorati hamda qadimiy masjid binolari saqlanib qolgan. Ushbu masjid binosi to‘sinlaridagi o‘yma bezaklar va arabiy yozuvlar ham mavjuddir.

Hulosa qilib aytganda, hozir Namangan viloyati hududida 136 ta arxeologik yodgorlik davlat muhofazasiga olingan. Ularning aksariyatidan qabriston sifatida foydalanib kelingan. Qabriston sifatida foydalanish madaniy qatlam uchun zararli, lekin qabriston sifatida bo‘lganligi uchun sho‘rolar tuzumi davrida ham kelajagimiz uchun, tariximiz uchun bebaho bo‘lgan maskanlar saqlanib qolgan. Endigi kundagi vazifamiz shu kunga qadar yetib kelgan arxeologik yodgorliklarimizni kelajak avlodlarga busbutun yetkazish, saqlash va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish orqali tariximizning ochilmagan qirralarini ochishimiz mumkin. Bugun mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish ham dolzarb masalaga aylangan.³ Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevral Qarori ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida qarorga muvofiq "O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!" ichki turizmni rivojlantirish dasturi e‘lon qilindi. Respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldi PQ-3509 “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Shu o‘rinda viloyatimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish ayni paytda moddiy madaniy meros ob‘ektlarida olib boriladigan madaniy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Sayyohlar, ziyoratchilarning mazmunli dam olishlarini tashkil qilish, ularga namunali servis xizmatini ko‘rsatish o‘z o‘rnida ijtimoiy-madaniy sohadagi ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb masalalardan biridir.

² Ro‘zinov, B., Rejabova, S., & Ismoilov, Yu. (2013). Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. *Namangan: Namangan*. 51-b.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509 son Qarori.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509 son Qarori.
2. Zohidov P.Sh.“Me‘mor olami” T-1996 yil “Komuslar bosh tahririyati”
3. Ro‘zinov, B., & Rajabova, S. (2006). Namangan viloyati madaniy merosidan lavhalar. *Namangan nashriyoti*.
4. Nuriddinov, B., & Ruzinov, B. (2021). Namangan, The City Of Flowers. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research*, 3(01), 35-38.
5. Ruzinov, B., & Abdullayev, A. (2021). Ko‘hna Axsikent. *Obuyestvo i innovatsii*, 2(2/S), 692-698
6. Ro‘zinov, B. A., Nuriddinov, B. X., & Umarov, X. (2021). Farg‘ona vodiysi amaliy san‘atining ta‘lim tarbiyadagi o‘rni. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 117-123.
7. Ro‘zinov, B. A., Nuriddinov, B. X., & Karimboyev, X. Q. O‘. (2021). Moddiy madaniy meros ob‘ektlari orqali talabalarning milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan mehrini uyg‘otish. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 99-108.
8. Ruzinov, B. A. (2022). Fargona vodiysi amaliy sanati. *Journal of new century innovations*, 10(3), 70-74.
9. Ruzinov, B. A. (2022). Akhsikent Earthquake. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 209-212.
10. Ro‘zinov, B., Rejabova, S., & Ismoilov, Yu. (2013). Qosimov A. Namangan viloyati madaniy merosi. *Namangan: Namangan*.
11. Qozoqov T, R. B., & Vohidov, A. (2020). Buyuklarga beshik bo‘lgan Axsikent yohud Farg‘ona allomalari. *Toshkent: Navro‘z*.
12. Qozoqov, T., Ruzinov, B., & Vohidov, A. (2018). Ibrat nigohidagi Axsikent. *Toshkent: Navroz*.
13. Ruzinov, B. A. (2023). Tasviriy san‘at rivojlanish tarixi va bugungi kundagi ahamiyatli jihatlarini o‘rganish va taxlil qilish. *models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(19), 1-8.
14. Askarovich, R. B. (2023). The role of tourism authority in Chust cultural heritage objects. *Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595)*, 3(1).
15. Pulatov, D., & Yusupov, A. (2020). The Peculiarity of the Master Mumin and the Uzbek National Painting. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 74-77.
16. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). THE END OF THE 20TH CENTURY THE BEGINNING OF THE 21ST CENTURY UZBEKISTAN MAGNIFICENT SCULPTURE. *Open Access Repository*, 4(2), 102-107.
17. Pulatov, D. (2018). Tasviriy San‘at tarixi (Qadimgi dunyo san‘ati).
18. Ruzinov Askarovich Bakhtiyar, Mamadjonova is the daughter of Shahlo Toychiboy THE ROLE OF OUR NATIONAL PEOPLE'S APPLIED ARTS IN YOUTH EDUCATION, 33-37. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence ISSN: 2835-3064. Table of Content - Volume 3 | No 1 (Jan 2024)*,



19. Mamadjonova Shahlo. (2024). FUNDAMENTAL BASES OF FINE ART TERMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 229–231. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/1501> 20.

20. B.A.Ro'zinov. Madaniy meroslarni o'rganishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.440-442 b. "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar" mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 462-bet.

Ilovalar



Quymozor arxeologik yodgorligi.



Yortepa arxeologik yodgorligi va mahalliy nomsiz masjidi